

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOT YO'LI VA «BOBURNOMA»
ASARINI O'RGANISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

Tangriyeva Umida Allaberganova

Urganch davlat universiteti akademik litseyining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: O'quv mashg'ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, samarali natijalarga erishish hozirda har bir pedagogning maqsadidir. Darslarning interfaol metodlar asosida, ko'rgazmalarga boy tarzda tashkil etilishi o'quvchilarda mavzu yuzasidan mustahkam bilimga ega bo'lish, mustaqil fikrini bayon eta olish, faollik kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur hayot yo'li va «Boburnoma» asarini o'rganishda yangi interfaol metodlarlarning ahamiyati hamda adabiyot darslarida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi interfaol metodlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Andijon, Aksi, Umarshayx Mirzo, Boboqli, Qosim Qavchin, Ibrohim Lo`diy, Rano Sango, oddiy ruboiy, tuyuq turlari, "Qoldimu" g`azali, P.Qodirov, Humoyun, Komron, "Voldiya", "Muxtasar"(aruz), Hind va Qobul devoni.

Bugungi kunda ta'lif-tarbiya sohasiga har qachongidan ko'ra ko'proq e'tibor bilan qaralmoqda. Aytish joizki, har bir o'qituvchi o'z fanini mukammal bilishi, darslarini zamon talablari darajasida olib boqishi lozim.

Akademik litseylarda adabiyot darslarida, ayniqsa, yangi interfaol metodlardan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Misol tariqasida Zahiriddin Muhammad Bobur hayot yo'li va «Boburnoma» asarini o'rganishda dars jarayonini qanday tashkil etish hamda unda foydalanish mumkin bo'lgan interfaol metodlardan bir nechtasini ko'rib chiqsak.

Dars 80 daqiqaga mo'ljallangan.

Darsning maqsadi: Z.M.Bobur hayoti, lirik merosini o'rganish, o'quvchilarni adabiyot hamda tariximizga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularning dunyoqarashini kengaytirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

Dars shiori:

Bori elga yaxshilik` qilg'ilki, mundin yaxshi yo`q,

Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilik`!

I. I.Darsning tashkiliy qismi. Dars avvalida o'quvchilar bilan salomlashiladi, davomat olinadi. Auditorianing darsga tayyorlik darajasi ko'zdan kechiriladi. So`ng o'quvchilar «Kichik guruhlarda ishlash» metodidan foydalanib, 2 guruhg'a ajratiladi, guruhlarga nom beriladi.

I.2.O'tilgan mavzuni takrorlash. «Besh yulduz» metodi asosida o'tilgan mavzu takrorlab olinadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga besh qirrasiga 5 so'z yozilgan besh yulduz shaklidagi qog'ozni beradi. O'quvchilar undagi so'zlarga qarab bu qaysi asar ekanini topadilar hamda izohlab beradilar. Shuningdek, uyga vazifa tekshiriladi. Javoblarga va uyga vazifaning qanday bajarilganligiga qarab kichik guruhlarga ball qo'yiladi.

II.Yangi mavzusi bayoni. Yangi mavzusi e'lon qilinadi, rejalar bilan tanishtiriladi. (Bobur hayoti va ijodi bilan mustaqil tanishish oldingi darsda topshiriq sifatida beriladi). Har bir

kichik guruuhga ikki rejani yoritib berish topshirig'i beriladi. Belgilangan vaqtidan so`ng kichik guruuh a`zolarining ma'lumotlari tinglanadi va ball beriladi. O`quvchilar tomonidan berilgan ma'lumotlar boshqa guruuh a`zolari va o`qituvchi tomonidan to`ldirib borilishi mumkin.

III. Mustahkamlash bosqichi.

Mustahkamlash bosqichi 4 shart asosida olib boriladi.

1-shart «O`yla, izla, top!» deb nomlanadi. Unda ikkala guruuh ham Bobur hayoti va ijodi yuzasidan mustaqil topshiriqni bajarishi lozim bo`ladi (masalan, mavzuni boshqa fanlar bilan bog`liqligini ko`rsatib berish, shoir she`rlarini chet tillarida aytib berish ham mumkin yoxud Bobur hayot yo`li bilan bog`liq sahna ko`rinishi namoyish qilinishi mumkin).

2-shartda «Boburnoma» bilimdoni sharti bajariladi. Unda o`qituvchi oldindan tayyorlab kelgan «Boburnoma» asaridagi joy va shaxslar ta'rifi» (bunda asardagi joy va shaxslar ta'rifi keltirilib, atoqli otlar tushirib qoldirilgan, nuqtalar o`rnini to`ldirish lozim) slaydini o`quvchilarga elektron doskada namoyish qiladi. O`quvchilar uni topishga harakat qiladilar. Slayd savollari quyidagicha bo`lishi mumkin:

Nuqtalar o`rnini to`ldiring.

1.”.....ni Iskandar bino qilg`ondur, mo`g`ul va turk ulusi Semizkand derlar. Temurbek poytaxt qilib erdi, Ma`muraning kanorasida voqe bo`lubtur...”

2.“.....durkim, Farg`ona viloyatining poytaxtidur. Eli turkdur. Shahr va bozorisida turki bilmas kishi yo`qdur. Elining lafzi qalam birla rostdur... Ov qushi dog`i ko`p, qirg`ovuli behad semiz bo`lur... Bir qirg`ovulni uskunasini to`rt kishi yeb tugata olmaydur”

3. ”Mavorounnahrda qovunicha ko`p va xo`p qovun bo`lmas”.

4. “..... viloyati beshinchi iqlimdandur. Ma`muraning kanorasida voqe bo`libtur. Sharqi Qashqar, g`arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog`lar”.

5. “Rub`i maskundacha latif shahar kamroqdur. Beshinchi iqlimdandur. Hech yog`iy qahr va g`alaba ila munga dast topmog`on uchun “baldayi mahfuza” derlar”.

6. “Yana viloyatidurkim, Nasaf va Naxshab ham derlar. mo`g`ulcha otdur. G`olibo bu ot Chingizzon tasallutidin so`ng bo`lg`ondur. Kam obroq yerdur, bahori xo`b bo`lur, ekini va qovuni yaxshi bo`lur. Samarqanddin janub sari o`n sakkiz yig`och yo`ldur”.

7. ”..... shahri ajab orasta shahredur, xub nonvoliqlari va oshpazliklari bordur. Olamda yaxshi qog`oz bu shahrdin chiqar...”

8. “Sulton Abusaid Mirzoning to`rtinchi o`g`li... Past bo`yluq, bo`lma soqollik, qo`ba yuzlik tanbal kishi edi. To`nni bisyor tor kiyar erdi... Ravon savodi bor edi. “Xamsatayn” va masnaviy kitoblarni va tarixlarni o`qib edi. Aksar “Shohnoma” o`qir edi”.

9. “..... karim ut-tarafayn edi. Shakli-shamoyili: qiyiq ko`zlik, sherandom bo`yluq kishi edi. Belidin quyi inchka edi... Mafosil zahmati jihatidin namoz qila olmas edi, ro`za tutmas edi. Shujo va mardona kishi edi..

10. “..... naziri yo`q kishi edi. Turkiy til birlan to she`r aytibdurlar, hech kim oncha ko`p va xo`p aytqon emas”.

11. «Bu besh kunlik o`tar dunyo uchun andoq donishmand va qari otasini shahid qildi. Agarchi o`zi ham 5-6 oy saltanat qilmadi».

12. «..... begi (temuriyzoda) emas edi, balki musoxibi (yaqini, suhbatdoshi) edi... mijoji nozik bila mashhurdir. O`g`ul va qiz va ahli ayol yo`q, olamni tavre fard (yolg`iz) va jarida (tanhilik) o`tkazdi».

Shart oxirida kichik guruhlarga ball beriladi.

3-shartda o`quvchilarga yangi mavzu bo`yicha krossvord beriladi. Krossvord uchun ajratilgan vaqt tugagach, javob varaqalari kichik guruhlarda almashib tekshiriladi.

Krossvordda savollar quyidagicha bo`lishi mumkin:

1. Bobur 20 yoshida kashf etgan alifbo?
2. Boburning sadoqatli beklaridan biri?
3. XVII asrda yaratilgan “Shajara turk” (Abulg`ozzi Bahodirxon) asarining yozilishiga katta ta`sir ko`rsatgan asar qaysi?
4. Boburning eng katta dushmani kim?
5. Shayboniyxon qo`lida qolishga majbur bo`lgan Boburning opasi?
6. “Bog`i Bobur” joylashgan Qobul qaysi davlat hududiga to`g`ri keladi?
7. Boburning aruz vazni haqidagi asari?
8. Hindistonda Bobur kimni o`ziga vazir etib tayinlaydi?
9. O`zbek adabiyotida yaratilgan memuar asarlardan biri?
10. O`zbekistonda “Boburnoma”dan 1928-yilda kim parchalar e`lon qildi?

4-shart ”Mushoira” deb nomlanadi. Unda o`quvchilar Bobur ijodidan yod olgan she`rlarini aytadilar. She`r aytu olmay qolgan guruh yutqazgan hisoblanadi. Shart 10 daqiqa davom etadi. Shart so`ngida kichik guruhlarga ball beriladi.

5-shartda «Venn diagrammasi» metodi shartlari bilan tanishtiriladi. Unda o`quvchilar doiraning ikki tomoniga Alisher Navoiy va Z.M.Bobur ijodining farqli tomonlarini, doiralarning kesishgan joyiga esa o`xshash tomonlarini yozadilar, mos ma'lumotlar bilan to`ldiradilar.



20

Ushbu shartni to`g`ri va tez bajargan guruhga yuqori ball beriladi.

IV. Yakuniy qism. Dars so`ngida shartlar davomida kichik guruhlarning yig`gan ballari hisoblanib, g`olib guruh e`lon qilinadi. O`quvchilar baholanadi.

Uyga vazifa sifatida Bobur hayoti va ijodi yuzasidan 30 ta test tuzib kelish va g`azal yod olish topshirig`i beriladi. Dars xulosalovchi fikrlar bilan yakunlanadi.

Xulosa qilib aytganda, hozirda ta`lim sohasini takomillashtirishdagi asosiy yo`nalishlardan biri interfaol ta`lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo`llash natijasida o`quvchilarining mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o`z fikrini bayon qilish, sog`lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko`nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Interfaol metodlar o`z mohiyatiga ko`ra ta`limiy yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma`lum darajada samaradorlikka erishishni ta`minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. R.Yo`ldoshev, R.Xusainova, U.Bobojonova. Ta`limning interfaol metodlari. Metodik qo`llanma. Urganch-2011.
2. I.O.Ismailov, Y.H.Eshchanova, “O`zbek adabiyoti”. O`quv-uslubiy qo`llanma. Urganch – 2012.
3. S.Matjon. Sh. Sariyev. O`zbek adabiyoti. Toshkent. 2007
4. B.Tuxliyev. Adabiyot o`qitish metodikasi. T. 2006.
5. <http://interfaol-metodlar.sayti>.
6. www.ziyo.uz.